V.I. ROMANSOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

ESHBEKOV RAYXONBEK XUBAYDULLO O‘G‘LI

CHEKLI ZICHLIK VA MOSLANGAN MANBALI HIROTA TIPIDAGI TENGLAMA UCHUN KOSHI MASALASI

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UDK: 517.957

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

V.I. ROMANSOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

ESHBEKOV RAYXONBEK XUBAYDULLO O‘G‘LI

CHEKLI ZICHLIK VA MOSLANGAN MANBALI HIROTA TIPIDAGI TENGLAMA UCHUN KOSHI MASALASI

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/FM1294 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (http://kengash.mathinst.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Xasanov Aknazar Bekdurdiyevich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Toxirov Jozil Ostonovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Sobirov Zarifboy Axmedovich fizika-matematika fanlari doktori
Yetakchi tashkilot:	**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «___»_________ soat____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)207–91–40, e-mail: uzbmath@umail.uz, website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)207–91–40.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «____» _______________kuni tarqatildi.
(2025 yil «____» ___________ dagi _______ raqamli reestr bayonnomasi).

U.A. Roziqov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, fizika-matematika fanlari doktori, akademik

J.K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

A.A. Azamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, fizika-matematika fanlari doktori, akademik

KIRISH (falsafa dokto ri (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ahamiyati. Jahonda olib borilayotgan ko‘plab ilmiy va amaliy tadqiqotlarda Dirak va Shturm-Liuvill operatori uchun qo‘yilgan to‘g‘ri va teskari spektral masalalarni tadqiq qilishga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda spektral analizning to‘g‘ri va teskari masalalari zamonaviy matematik fizikaning evolyutsion tenglamalarining yechimlarini topish va yechimlar sinfini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, bu masalalar radiotexnika, chiziqli bo‘lmagan optika, kvant mexanikasi va amorf jismlarning kristallik xususiyatlarini modellashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Davriy Dirak operatori uchun teskari spektral masalalar usulidan foydalangan holda chekli zichlik va moslangan manbali nochiziqli Hirota tipidagi tenglama uchun boshlang‘ich qiymat masalasini yechish algoritmi ba’zi fizik muhitlarda chiziqli bo‘lmagan to‘lqinlarning harakatini o‘rganishda va optik tolali tizimlarni tahlil qilishda, shu jumladan yuqorida aytib o‘tilgan sohalarda katta ahamiyatga ega.

Jahonda nochiziqli muhitda tarqaladigan turli xil ultraqisqa yorug‘lik impulslari, gidrodinamika, chiziqli bo‘lmagan muhitda lazer nurlarining tarqalishi, chiziqli bo‘lmagan optika, kvant mexanikasi sohalarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida chekli zichlikka ega Hirota tipidagi tenglamasini integrallash katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida qator yoki integral ko‘rinishdagi moslangan manbalarga ega bo‘lgan nochiziqli Hirota tenglamasi uchun Koshi masalasining yechimini topish muammosi yuqorida qayd etilgan fizik jarayonlarning muhim xususiyatlarini o‘rganish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishda dolzarb vazifa hisoblanadi.

Respublikamizda matematik fizikaning nochiziqli evolyutsion tenglamalarining yechimlarini Dirak operatoriga qo‘yilgan to‘g‘ri va teskari spektral masalalar usulidan foydalanib aniqlash hamda topilgan yechimlarni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Algebra va uning tatbiqlari, differensial tenglamalar va uning tatbiqlari, chiziqsiz tizimlar, dinamik tizimlar va ularning tatbiqlarini matematik modellashtirish, stoxastik tahlil, tibbiy-biologik informatika, hisoblash matematikasi[1]” fanlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilangan. Ushbu vazifani amalga oshirishda, xususan zamonaviy matematik fizikaning nochiziqli evolyutsion tenglamalarni integrallashda teskari spektral masalalar usulini qo‘llab, davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida chekli zichlikka yoki moslangan manbaga ega Hirota tipidagi tenglamaga qo‘yilgan boshlang‘ich qiymat masalasining yechimi mavjudligini ko‘rsatish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarni yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” qarori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019 yil 9 iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivoylantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akmademiyaning V.I. Romanoviskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasida fan va texnikani rivojlantirishning IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. 1946-yilda Borg $[0,\pi]$ oraliqdagi Shturm-Liuvill operatori Dirixle chegaraviy shartlari bilan berilgan holda, agar ikki xil ya'ni Dirixle–Dirixle va Dirixle–Neyman chegaraviy shartlari uchun spektr ma’lum bo‘lsa, u holda $q(x)$ potensial funksiyani yagona aniqlanishi mumkinligini ko‘rsatdi.

Ko‘p o‘tmay, 1951-yilda Gelfand va Levitan spektral berilganlardan(xos qiymatlar va normallovchi o‘zgarmaslar) foydalangan holda teskari masalani yechishning analitik usulini taqdim etdilar. Shundan so‘ng, Marchenko teskari sochilish nazariyasi uchun asos bo‘lgan nazariyani ishlab chiqdi va bu nazariya sochilish nazariyasi berilganlaridan foydalanib potensiallarni qayta tiklash imkonini beradi.

1967-yilda Gardner, Grin, Kruskal va Miura quyidagi Shturm–Liuvill operatori

$$Ly \equiv -y'' + q(x,t)y = \mu y,\ \ x \in \mathbb{R}, t > 0.$$

uchun teskari sochilish masala usulidan foydalangan holda ushbu Korteveg–de Friz (KdF) tenglamasi

$$q_t = 6qq_x - q_{xxx},\ \ q(x,t)|_{t=0} = q_0(x),\ \ x \in \mathbb{R}, t > 0,$$

uchun Koshi masalasini yechishni taklif qildilar.

So‘ngra Piter D. Laks nazariyaga Laks juftligi tushunchasini kiritib, KdV kabi ma’lum nochiziqli evolyutsion tenglamalarini izospektral deformatsiyalar, ya’ni $\frac{dL}{dt} = [P, L]$ ko‘rinishda yozish mumkinligini ko'rsatdi va shu bilan nochiziqli xususiy hosilali differensial tenglamalarni spektral nazariya bilan bog‘ladi va integrallanuvchi sistemalarning zamonaviy nazariyasiga asos soldi. Zaxarov va Shabat esa nochiziqli fokuslanuvchi va defokuslanuvchi Shredinger tenglamalari

$$i\psi_t + \psi_{xx} \pm 2|\psi|^2\psi = 0$$

uchun teskari sochilish masalalar usulini ishlab chiqdilar:

Oradan ko‘p vaqt o‘tmasdan Vadati modifitsirlangan Korteveg–de Friz (mKdF) tenglamasi

$$u_t + u^2u_x + \mu u_{xxx} = 0,\ \ 0 < \mu < \frac{1}{6}$$

uchun Zaxarov va Shabat g‘oyalarini rivojlantirdi.

1973-yilda Hirota kompleks mKdF va nochiziqli Shredinger tenglamalarining kombinatsiyasidan tashkil topgan va keyinchalik Hirota tenglamasi deb nomlangan ushbu

$$i\frac{\partial\psi}{\partial t}+i3\alpha|\psi|^2\,\frac{\partial\psi}{\partial x}+\beta\frac{\partial^2\psi}{\partial x^2}+i\gamma\frac{\partial^3\psi}{\partial x^3}+\delta|\psi|^2\psi=0,$$

tenglamaning aniq N –"konvert" soliton yechimlarini topdi. Bu yerda $\alpha\beta = \gamma\delta$, $\alpha,\beta,\gamma,\delta\in\mathbb{R}_+,\ x\in\mathbb{R}, t>0$.

1974-yilda esa Ablovitz, Kaup, Nevell va Sigur odatiy birinchi tartibli matritsaning xos qiymat masalasidan

$$\Psi_{\mathrm{x}}=U(x,t,\lambda)\Psi,\ \ \Psi_t=V(x,t,\lambda)\Psi$$

foydalangan holda keng miqyosidagi integrallanuvchi sistemalar sinfini aniqlash uchun yagona tizimni ishlab chiqdilar.

Shu yili Novikov teskari spektral nazariyani integrallanuvchi sistemalar, xususan, KdF tenglamasi bilan bog'lab, chekli zonali potensiallar tushunchasini kiritdi. Bundan tashqari, Dubrovin, Its, Matveevlar chekli zonali holda Shturm–Liuvill operatori uchun teskari spektral masalalar usulidan foydalanib, KdF tenglamasiga qo'yilgan Koshi masalasi ixtiyoriy boshlang'ich shartlar bilan berilganda yechimga ega ekanligini isbotladilar va Riman teta funksiyalaridan foydalangan holda yechimning aniq formulasini topdilar.

Bundan tashqari, A.B. Xasanov o'zining ilmiy maktabida davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida Dirak operatori uchun teksari spektral masalalar usuli yordamida nochiziqli evolyutsion tenglamalarni integrallash nazariyasiga asos solgan. 2022-yilda Xasanov va Mo'minov defokuslanuvchi Shredinger tenglamasi davriy Dirak operatori uchun teskari spektral masalalar usuli orqali integrallash mumkinligini isbotladilar. Shuningdek, A.B. Xasanov va uning shogirdlari KdF, mKdF, kosinus–Gordon(coshG), mKdF–coshG, Liuvill(L), Hirota, mKdF–L, coshG–L, manfiy tartibli mKdF–L, manfiy tartibli mKdF–coshG kabi turli xil nochiziqli xususiy hosilali differensial tenglamalar teskari spektral masalalar usuli yordamida integrallanishini ko'rsatdilar.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya tugallangan oliy o'quv yurti yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Differensial operatorlar spektral nazariyasining nochiziqli evolyutsion tenglamalarga tadbiqlari" nomli ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Nochiziqli chekli zichlikka ega Hirota tipidagi tenglama va nochiziqli moslangan qator va integral manbali Hirota tipidagi tenglamalarni cheksiz zonali davriy funksiyalar sinfida integrallashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

– davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida chekli zichlikka ega Hirota tipidagi tenglamaning integrallanuvchi ekanligini isbotlash;

– davriy Dirak operatori uchun teskari spektral masalalar usulidan foydalanib, qo'shimcha hadlarga ega Hirota tipidagi tenglama uchun boshlang'ich qiymat masalasining yagona yechimga ega ekanligini isbotlash;

– moslangan qator manbali Hirota tipidagi tenglama uchun Koshi masalasining davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida yagona yechimi mavjud ekanligini isbotlash;
– oʻz-oʻziga qoʻshma Dirak operatori uchun teskari spektral masalalar usulidan foydalanib, integral manbali Hirota tipidagi tenglamaning integrallanuvchi ekanligini isbotlash.

Tadqiqot obyektlari chekli zichlikka ega Hirota tipidagi tenglama, qoʻshimcha hadlarga ega Hirota tipidagi tenglama, qator manbali Hirota tipidagi tenglama, integral manbali Hirota tipidagi tenglamalardan iborat.

Tadqiqot predmeti chekli zichlikka va moslangan manbalarga ega Hirota tipidagi tenglamalarni integrallashda davriy Dirak operatori uchun toʻgʻri va teskari spektral masalalardan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida differensial tenglamalar, matematik fizika, differensial operatorning spektral nazariyasi, kompleks oʻzgaruvchili funksiyalar nazariyasi va funksional analizni masalalarini yechish usullari qoʻllanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

–davriy Dirak operatori uchun teskari spektral masalalar usulidan foydalanib, chekli zichlikka ega Hirota tipidagi tenglama olti marta uzluksiz differensiallanuvchi davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida integrallanuvchi ekanligi isbotlangan;

– olti marta uzluksiz differensiallnuvchi funksiyalar sinfida qoʻshimcha hadlarga ega Hirota tipidagi tenglama uchun Koshi masalasining yagona yechimi mavjud ekanligi isbotlangan;

– davriy Dirak operatori uchun teskari spektral masalalar usulidan foydlanib, qator manbali Hirota tipidagi tenglama davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida integrallanuvchi ekanligi isbotlangan;

– olti marta uzluksiz davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida integral manbali Hirota tipidagi tenglama uchun boshlangʻich qiymat masalasining yechimi mavjud va yagona ekanligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

–davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida chekli zichlikka ega nochiziqli defokuslangan Hirota tipidagi tenglama uchun Koshi masalasini yechish algoritmi yordamida cheksiz oʻlchovli dinamik sistemalarning inersial manifoldlari oʻrganildi;

–davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida moslangan qator manbali Hirota tipidagi tenglamani integrallash algoritmi, kechikkan reaksiya-diffuziya tenglamalari uchun dinamik chegara shartlari ostida attraktorlarning xossalarini oʻrganish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi davriy koeffitsiyentli differensial operatorlar uchun teskari spektral masalalarni yechishda va ularni nochiziqli evolyutsion tenglamalarni yechish uchun qoʻllashda matematik fizika, spektral analiz, funksional analiz usullaridan foydalanilgan, shuningdek, matematik mulohazalar qatʼiy isbotlar yordamida asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zamonaviy matematik fizikaning evolyutsion tenglamalarini davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida integrallash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati nochiziqli muhitlarda optika, kvant mexanikasi, elektrodinamika, gidrodinamika, zamonaviy matematik fizikada qo‘llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Nochiziqli Hirota tenglamasini integrallash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

chekli zichlikli nochiziqli Hirota tipidagi tenglama va qo‘shimcha hadlar bilan berilgan nochiziqli Hirota tipidagi tenglamalarni davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida integrallash algoritmidan NRF-2020R1A2C1003119 “Global Attractors and Inertical Manifolds of Infinite Dimensional Dynamical Systems” fundamental loyihada foydalanilgan (Janubiy Koreya Respublikasi, Chonnam milliy universitetining 2025 yil 21 apreldagi ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi dinamik chegaraviy shartlarga ega kechikilgan reaksiya diffuziya tenglamalari sinfi uchun attraktorlarning xususiyatlarini o‘rganish imkonini bergan.

chekli zichlikli nochiziqli Hirota tipidagi tenglama va moslangan qator va integral manbalar bilan berilgan nochiziqli Hirota tipidagi tenglamalarni davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida integrallash algoritmidan GP/2023/9752700-“Theoretical and numerical studies for some classes of fractional integro-differential equations in Banach space” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishida foydalanilgan (Malayziya Putra Universitetining 2025-yil 18-sentyabrdagi ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi Banax fazosida kasr tartibli integro-differensial tenglamalarning ba’zi sinflarini nazariy jihatdan tadqiq qilish imkonini bergan;

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda, jumladan 3 ta xalqaro va 4 ta Respublika konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarini e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalarini himoya qilishda tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 3 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 122 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ahamiyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, masalaning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari tavsiflangan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumot keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Davriy Dirak operatori haqida”** deb nomlangan birinchi bobida davriy Dirak operatori va Dirak operatori uchun teskari spektral masalalar usuli haqida fundamental va zarur ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, u fazoviy o‘zgaruvchiga nisbatan Dirak operatorining spektral berilganlarining evolyutsiyasini ifodalovchi birinchi Dubrovin differensial tenglamalari sistemasi keltirib chiqarilgan va ushbu tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasining yagona yechimi mavjudligi isbotlangan. Keyingi boblarda birinchi bobda keltirilgan ma’lumotlardan foydalanilgan.

Quyidagi siljigan argumentli Dirak operatorini qaraymiz:

$$\mathcal{L}(\tau,t)y \equiv J\frac{dy}{dx} + \Lambda(x+\tau,t)y = \mu y,\quad x,\tau \in \mathbb{R}, t>0, \qquad (1)$$

bu yerda $J=\begin{pmatrix}0 & 1\\ -1 & 0\end{pmatrix}$, $\Lambda(x+\tau,t)=\begin{pmatrix}p(x+\tau,t) & q(x+\tau,t)\\ q(x+\tau,t) & -p(x+\tau,t)\end{pmatrix}$, $y(x,t)=\begin{pmatrix}y_1(x,t)\\ y_2(x,t)\end{pmatrix}$, $\mu\in\mathbb{C}$, $p(x+\pi,t)=p(x,t)\in C^2(\mathbb{R})$, $q(x+\pi,t)=q(x,t)\in C^2(\mathbb{R})$ haqiqiy qiymatli funksiyalar.

Ushbu $u(x,\mu,\tau,t)=\big(u_1(x,\mu,\tau,t),u_2(x,\mu,\tau,t)\big)^T$ and $v(x,\mu,\tau,t)=\big(v_1(x,\mu,\tau,t),v_2(x,\mu,\tau,t)\big)^T$ funksiyalar orqali (1) tenglamalar sistemasining mos ravishda $u(0,\mu,\tau,t)=(1,0)^T$ va $v(0,\mu,\tau,t)=(0,1)^T$ shartlarni qanoatlantiruvchi yechimlarini belgilaymiz. $\Delta(\mu,\tau,t)=u_1(\pi,\mu,\tau,t)+v_2(\pi,\mu,\tau,t)$ funksiya (1) sistema uchun Lyapunov funksiyasi deyiladi. Shuningdek, $\mu_n(\tau,t), n\in\mathbb{Z}$ orqali (1) Dirak sistemasiga qo‘yilgan davriy $y(0,\tau,t)=y(\pi,\tau,t)$ va yarimdavriy $y(0,\tau,t)=-y(\pi,\tau,t)$ chegaraviy masalalarning xos qiymatlarini belgilaymiz. Bu xos qiymatlar $\Delta(\mu,\tau,t)\mp 2=0$ tenglamaning ildizlari bilan ustma-ust tushadi. (1) sistema uchun $y_1(0,\tau,t)=y_1(\pi,\tau,t)=0$ shart bilan aniqlangan Dirixle chegaraviy masalasining xos qiymatlarini yordamida belgilaymiz. Osongina tekshirish mumkinki, $\xi_n(\tau,t), n\in\mathbb{Z}$ xos qiymatlari $v_1(\pi,\mu,\tau,t)=0$ tenglamaning ildizlari bilan ustma-ust tushadi.

1-teorema. Ushbu $\Delta(\mu,\tau,t)$ Lyapunov funksiyasi τ parametrga bog‘liq bo‘lmaydi, ya’ni $\Delta(\mu,\tau,t)=\Delta(\mu,t)$. Agar τ parametr $[0;\pi]$ oraliqda o‘zgarsa, u holda Dirixle chegaraviy masalasining $\xi_n(\tau,t)$xos qiymatlari $[\mu_{2n-1},\mu_{2n}], n\in\mathbb{Z}$ oraliqni to‘ldiradi, ya’ni

$$\xi_n(\tau,t)\in[\mu_{2n-1},\mu_{2n}], n\in\mathbb{Z}.$$

1-ta’rif. Ushbu (μ_{2n-1},μ_{2n}) intervallarga lakunalar deyiladi.

2-ta’rif. Agar lakunalar soni cheksiz bo‘lsa, u holda Dirak operatorining $p(x,t)$ va $q(x,t)$ potensiallari cheksiz zonali davriy potensiallar deyiladi. Shuningdek, $\mathcal{L}(\tau,t)$ Dirak operatori davriy cheksiz zonali operator deyiladi.

Biz qaragan hol uchun barcha lakunalar ochiq, ya’ni $\mu_{2n-1} \neq \mu_{2n}, n \in \mathbb{Z}$.

Shuningdek, quyidagi ko‘rinishda lakunlar uzunliklarini aniqlaymiz: $\gamma_n = \mu_{2n} - \mu_{2n-1},\ \ n \in \mathbb{Z}$.

3-ta’rif. (1) Dirak sistemasiga qo‘yilgan Dirixle chegaraviy masalasining $\xi_n(\tau,t), n \in \mathbb{Z}$ xos qiymatlari va ushbu $\sigma_n(\tau,t) = sgn\{v_2(\pi,\xi_n,\tau,t) - u_1(\pi,\xi_n\tau,t)\}, n \in \mathbb{Z}$ ishoralar ketma-ketligi $\mathcal{L}(\tau,t)$ Dirak operatorining spektral parametrlari deyiladi. Spektral parametrlar va lakunalarning chetki nuqtalari $\mu_n, n \in \mathbb{Z}$ lar birgalikda, ya’ni ushbu $\{\mu_n, \xi_n(\tau,t), \sigma_n(\tau,t) = \pm 1,\ n \in \mathbb{Z}\}$ to‘plam $\mathcal{L}(\tau,t)$ Dirak operatorining spektral berilganlari deyiladi.

4-ta’rif. Ushbu $p(\tau,t)$ va $q(\tau,t)$ potensiallar yordamida $\mathcal{L}(\tau,t)$ Dirak operatorining spektral berilganlarini topish masalasiga to‘g‘ri spektral masala, spektral berilganlar yordamida $\mathcal{L}(\tau,t)$ Dirak operatorining $\Lambda(\tau,t)$ koeffitsiyentini tiklash masalasiga esa teskari spektral masala deyiladi.

2-teorema[2]. $\mathcal{L}(\tau,t)$ operatorning $p(\tau,t)$ va $q(\tau,t)$ koeffitsiyentlari $\{\mu_n, \xi_n(\tau,t), \sigma_n(\tau,t) = \pm 1,\ n \in \mathbb{Z}\}$ spektral berilganlar yordamida bir qiymatli aniqlanadi.

Ushbu

$$\psi^{\pm}(x,\mu,\tau,t) = u(x,\mu,\tau,t) + \frac{v_2(\pi,\mu,\tau,t) - u_1(\pi,\mu,\tau,t) \mp \sqrt{\Delta^2(\mu) - 4}}{2v_1(\pi,\mu,\tau,t)} v(x,\mu,\tau,t) \quad (2)$$

ko‘rinishda aniqlangan $\psi^{\pm}(x,\mu,t) = \left(\psi_1^{\pm}(x,\mu,t), \psi_2^{\pm}(x,\mu,t)\right)$ funksiyalar (1) differensial tenglamalar sistemasining Floke yechimlari deyiladi.

Agar $\Delta^2(\mu) - 4 \neq 0$ bo‘lsa, u holda $\psi^{+}(x,\mu,\tau,t)$ va $\psi^{-}(x,\mu,\tau,t)$ funksiyalar (1) sistemaning fundamental yechimlaridan iborat bo‘ladi.

1-lemma. $\mathcal{L}$ Dirak operatori faqat uzluksiz spektrga ega, ya’ni uning xos qiymatlari yo‘q. $\mathcal{L}$ Dirak operatorining spektri quyidagi to‘plamdan iborat:

$$E = \mathbb{R} \backslash \left(\bigcup_{n=-\infty}^{+\infty} (\mu_{2n-1}, \mu_{2n}) \right).$$

2-lemma. $\mathcal{L}(\tau,t)$ Dirak operatorining potensiallari uchun quyidagi “izlar formulalari” deb ataluvchi formulalar o‘rinli:

$$p(\tau,t) = \sum_{n=-\infty}^{+\infty} \left(\frac{\mu_{2n-1} + \mu_{2n}}{2} - \xi_n(\tau,t) \right), \quad (3)$$

$$q(\tau,t) = \sum_{n=-\infty}^{+\infty} (-1)^{n-1} \sigma_n(\tau,t) h_n\big(\xi(\tau,t)\big), \quad (4)$$

---

[2] H.N. Normurodov. *Nochiziqli modifitsirlangan Korteveg-de Friz–sinus–Gordon (mKdF–sG) tenglamalarini davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida integrallash.*. PhD Dissertatsiyasi, 2024, Samarqand, O‘zbekiston.

bu yerda

$$h_n(\xi)=\sqrt{(\xi_n(\tau,t)-\mu_{2n-1})(\mu_{2n}-\xi_n(\tau,t))}\times$$
$$\times\sqrt{\prod_{k=-\infty,k\neq n}^{+\infty}\frac{(\mu_{2k-1}-\xi_n(\tau,t))(\mu_{2k}-\xi_n(\tau,t))}{(\xi_k(\tau,t)-\xi_n(\tau,t))^2}}.$$

Dissertatsiyaning **“Chekli zichlikli yoki qo‘shimcha hadlar bilan berilgan Hirota tipidagi tenglama uchun boshlang‘ich qiymat masalasi”** deb nomlanuvchi ikkinchi bobida dastlab teskari spektral masalalar usuli haqida tarixiy ma’lumotlar keltirilgan, so‘ngra chekli zichlikli Hirota tipidagi tenglama va qo‘shimcha hadlar bilan berilgan Hirota tipidagi tenglama uchun boshlang‘ich qiymat masalalari olti marta uzluksiz differensiallanuvchi davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida yagona global yechimga ega ekanligi isbotlangan.

Ushbu bobning birinchi paragrafida ushbu

$$\begin{cases}p_t=[p_{xxx}+6(\rho^2-\{p^2+q^2\})p_x]-[q_{xx}+2q(\rho^2-\{p^2+q^2\})]\\ q_t=[q_{xxx}+6(\rho^2-\{p^2+q^2\})q_x]+[p_{xx}+2p(\rho^2-\{p^2+q^2\})]\end{cases}. \quad (5)$$

chekli zichlikli Hirota tipidagi tenglamani quyidagi

$$\begin{cases}p(x,t)|_{t=0}=p_0(x), \quad p_0(x+\pi)=p_0(x)\in C^6(\mathbb{R}),\\ q(x,t)|_{t=0}=q_0(x), \quad q_0(x+\pi)=q_0(x)\in C^6(\mathbb{R}),\end{cases} \quad (6)$$

boshlang‘ich shartlarni qanoatlantiruvchi va ushbu

$$\begin{cases}p(x+\pi,t)=p(x,t), q(x+\pi,t)=q(x,t), x\in\mathbb{R}, t>0\\ p(x,t), q(x,t)\in C_{x,t}^{3,1}(t>0)\cap C(t\geq 0)\end{cases}. \quad (7)$$

silliqlik sinfiga tegishli bo‘lgan x o‘zgaruvchi bo‘yicha π davrli haqiqiy yechimini davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida topish masalasi qaralgan. Bu yerda $\rho>0$ chekli son.

Biz (5)-(7) boshlang‘ich qiymat masalasi(BQM)ning yagona global yechimi mavjud ekanligini (1) Dirak operatori uchun teskari spektral masalalar usuli yordamida isbotlaymiz.

Dastlab, boshlang‘ich shartdagi $p_0(x)$ va $q_0(x)$ funksiyalar yordamida quyidagi $\mathcal{L}(\tau,0)$ Dirak operatorini quramiz:

$$\mathcal{L}(\tau,0)y\equiv\begin{pmatrix}0&1\\-1&0\end{pmatrix}\begin{pmatrix}y_1'\\y_2'\end{pmatrix}+\begin{pmatrix}p_0(x+\tau)&q_0(x+\tau)\\q_0(x+\tau)&-p_0(x+\tau)\end{pmatrix}\begin{pmatrix}y_1\\y_2\end{pmatrix}=\mu\begin{pmatrix}y_1\\y_2\end{pmatrix}, \quad x,\tau\in\mathbb{R}.$$

To‘g‘ri spektral masalani yechish orqali $\mathcal{L}(\tau,0)$ Dirak operatorining $\{\mu_n,\xi_n^0(\tau),\sigma_n^0(\tau)=\pm1, n\in\mathbb{Z}\}$ spektral berilganlarini topamiz.

Ushbu paragrafning asosiy maqsadi boshlang‘ich shartdagi $p_0(x)$ va $q_0(x)$ funksiyalar qanday mimimal silliqlik shartlarini qanoatlantirganda (5)-(7) BQM global yechimga ega bo‘lishini aniqlashdan iborat.

Asosiy natija quyidagi teorema yordamida ifodalaniladi.

3-teorema. Agar davriy cheksiz zonali $p_0(x), q_0(x)$ funksiyalar $p_0(x+\pi)=p_0(x)\in C^6(\mathbb{R})$, $q_0(x+\pi)=q_0(x)\in C^6(\mathbb{R})$ shartlarni qanoatlantirsa, u holda (5)-(7) BQMning yagona aniqlangan global davriy cheksiz zonali

$p(x,t), q(x,t),\ x \in \mathbb{R}, t > 0$ yechimlari mavjud bo‘ladi va ular mos holda (3) va (4) izlar formulalari yordamida aniqlanadi.

3-teoremani isbotlash uchun $\mathcal{L}(\tau, t)$ Dirak operatorining $\{\mu_n, \xi_n(\tau,t), \sigma_n(\tau,t) = \pm 1,\ n \in \mathbb{Z}\}$ spektral berilganlari mavjud va yagona ekanligini isbotlash zarur.

Endi $\mathcal{L}(\tau, t)$ Dirak operatori spektral berilganlarining evolyutsiyasini ifodalovchi cheksiz Dubrovin differensial tenglamalar sistemasini keltiramiz.

3-lemma. Aytaylik, $p(x,t),\ q(x,t), x \in \mathbb{R}, t > 0$ funksiyalar (5)-(7) BQMning yechimlari bo‘lsin. U holda $\mathcal{L}(\tau, t)$ Dirak operatorining spektri chetki nuqtalari τ va t parametrlarga bog‘liq bo‘lmaydi, ya’ni $\mu_n(\tau,t) = \mu_n, n \in \mathbb{Z}$. Shuningdek, $\xi_n(\tau,t), \sigma_n(\tau,t) = \pm 1, n \in \mathbb{Z}$ spektral parametrlari quyidagi birinchi va ikkinchi Dubrovin differensial tenglamalar sistemasini qanotlantiradi:

$$1.\ \frac{\partial \xi_n(\tau,t)}{\partial \tau} = 2(-1)^{n-1}\sigma_n(\tau,t)\sqrt{(\xi_n(\tau,t) - \mu_{2n-1})\big(\mu_{2n} - \xi_n(\tau,t)\big)f_n(\xi) \times \\ \times \{p(\tau,t) + \xi_n(\tau,t)\}}, n \in \mathbb{Z}; \qquad (8)$$

$$2.\ \frac{\partial \xi_n(\tau,t)}{\partial t} = 2(-1)^{n}\sigma_n(\tau,t)\sqrt{(\xi_n(\tau,t) - \mu_{2n-1})\big(\mu_{2n} - \xi_n(\tau,t)\big)f_n(\xi)g_{n,1}(\xi)}. \quad (9)$$

Quyidagi boshlang‘ich shartlar o‘rinli:

$$\xi_n(\tau,t)|_{t=0} = \xi_n^0(\tau),\ \ \sigma_n(\tau,t)|_{t=0} = \sigma_n^0(\tau), n \in \mathbb{Z}, \qquad (10)$$

bu yerda $\xi_n^0(\tau), \sigma_n^0(\tau) = \pm 1, n \in \mathbb{Z}$ lar $\mathcal{L}(\tau, 0)$ Dirak operatorining spektral parametrlari va

$$f_n(\xi) = \sqrt{\prod_{\substack{k=-\infty \\ k\neq n}}^{+\infty} \frac{(\mu_{2k-1} - \xi_n)(\mu_{2k} - \xi_n)}{(\xi_k - \xi_n)^2}}, \qquad (11)$$

$g_{n,1}(\xi) = [4\xi_n^3 + 4p\xi_n^2 + 2\xi_n(p^2 + q^2 + q_\tau) - p_{\tau\tau} + 2(pq_\tau - p_\tau q) +$
$+2p(p^2 + q^2) - 6\rho^2(p + \xi_n)] + [(p + \xi_n)^2 + \xi_n^2 + q^2 + q_\tau - \rho^2],\ \ n \in \mathbb{Z},$
$p = p(\tau,t), q = q(\tau,t),\ \ \xi \equiv \xi(\tau,t) = (\dots, \xi_{-1}(\tau,t), \xi_0(\tau,t), \xi_1(\tau,t), \dots),$
$\sigma \equiv \sigma(\tau,t) = (\dots, \sigma_{-1}(\tau,t), \sigma_0(\tau,t), \sigma_1(\tau,t), \dots).$

Endi (5)-(7) BQM yagona global yechimga ega ekanligini isbotlaymiz.

Ushbu

$$\xi_n(\tau,t) = \mu_{2n-1} + (\mu_{2n} - \mu_{2n-1})\sin^2 x_n(\tau,t),\ \ n \in \mathbb{Z},$$

almashtirish yordamida (9)–(10) BQM $\mathcal{K}$ Banax fazosida yagona tenglama ko‘rinishida ifodalanadi:

$$\begin{cases} \dfrac{\partial x(\tau,t)}{\partial t} = H\big(x(\tau,t)\big), \\ x(\tau,t)|_{t=0} = x^0(\tau),\ \ x^0(\tau) \in \mathcal{K}, \end{cases} \qquad (12)$$

bu yerda

$$\mathcal{K} = \left\{x = (\dots, x_{-1}, x_0, x_1, \dots) \colon \|x\| = \sum_{n=-\infty}^{+\infty} (1 + |n|^2)(\mu_{2n} - \mu_{2n-1})|x_n| < \infty\right\},$$

$H\big(x(\tau,t)\big) = \big(\dots, H_{-1}\big(x(\tau,t)\big), H_0\big(x(\tau,t)\big), H_1\big(x(\tau,t)\big), \dots\big),$
$x^0(\tau) = (\dots, x_{-1}^0(\tau), x_0^0(\tau), x_1^0(\tau) \dots).$

Demak, (9), (10) BQMning o‘rniga unga ekvivalent bo‘lgan (12) BQMning yagona global yechimi mavjud ekanligini isbotlash yetarli.

1978-yilda Misyura[3] agar $p_0(x) \in C^6(\mathbb{R})$ va $q_0(x) \in C^6(\mathbb{R})$ shartlar o‘rinli bo‘lganda quyidagi asimptotikalar bajarilishini isbotladi:

$$\begin{cases} \mu_{2k}, \mu_{2k-1} = k + \sum_{j=1}^{7} c_j k^{-j} \pm 2^{-6}|k|^{-6}\left|q_{2k}^6\right| + |k|^{-7}\varepsilon_k^{\pm}, \\ \gamma_k \equiv \mu_{2k} - \mu_{2k-1} = \dfrac{\left|q_{2k}^6\right|}{2^5|k|^6} + \dfrac{\delta_k}{|k|^7}, \delta_k = \varepsilon_k^+ - \varepsilon_k^-, \end{cases} \tag{13}$$

bu yerda

$$q_{2k}^2 \equiv \frac{1}{\pi}\int_0^{\pi} Q_0^2(t)e^{-2ikt}dt, \;\; Q_0(t) = q_0(t) - ip_0(t), \;\; \sum_{k=-\infty}^{+\infty} \left(\varepsilon_k^{\pm}\right)^2 < \infty.$$

Shuningdek, ushbu $\xi_n(\tau) \in [\mu_{2n-1}, \mu_{2n}], n \in \mathbb{Z}$ munosabatdan quyidagi

$$\inf_{k \neq n}|\xi_n(\tau) - \xi_k(\tau)| \geq a > 0. \tag{14}$$

tengsizlik kelib chiqadi.

Endi (13) asimptotikalar va (14) tengsizlik yordamida quyidagi lemmani isbotlaymiz.

4-lemma. Quyidagi tengsizliklar o‘rinli:

$$C_1 \leq \left|\bar{f}_n(x)\right| \leq C_2, \;\; \left|\frac{\partial \bar{f}_n(x)}{\partial x_m}\right| \leq C_3\gamma_m,$$

$$\left|\bar{g}_{n,1}(x)\right| \leq C_4(|n|^3 + 1), \;\; \left|\frac{\partial \bar{g}_{n,1}(x)}{\partial x_m}\right| \leq C_5\gamma_m(|n|^2 + 1)(|m|^2 + 1), \;\; n, m \in \mathbb{Z},$$

bu yerda $x = (\dots, x_{-1}, x_0, x_1, \dots), \; C_j = const, \; j = \overline{1,5}$.

5-lemma. Agar boslang‘ich shartdagi $p_0(x)$ va $q_0(x)$ funksiyalar ushbu

$$p_0(x + \pi) = p_0(x) \in C^6(\mathbb{R}), \;\; q_0(x + \pi) = q_0(x) \in C^6(\mathbb{R}),$$

shartlarni qanoatlantirsa, u holda (12) BQM yagona global yechimga ega bo‘ladi.

Demak, (9), (10) BQMning yagona global yechimi mavjud.

Endi (5)-(7) BQMning yechimini topish algoritmini keltiramiz:

1) Dastlab, boshlang‘ich shartdagi $p_0(x)$ va $q_0(x)$ funksiyalardan foydalanib, $\mathcal{L}(\tau, 0)$ Dirak operatorining $\{\mu_n, \xi_n^0(\tau), \sigma_n^0(\tau), n \in \mathbb{Z}\}$ spektral berilganlarini topamiz;

2) So‘ngra $\mathcal{L}(\tau, t)$ Dirak operatorining spektral berilganlarini $\{\mu_n, \xi_n(\tau, t), \sigma_n(\tau, t), n \in \mathbb{Z}\}$ orqali belgilaymiz va (9), (10) BQMni ixtiyoriy τ qiymatlarda yechib, $\{\xi_n(\tau, t), \sigma_n(\tau, t), n \in \mathbb{Z}\}$ spektral parametrlarni topamiz;

3) (3) va (4) izlar formulalaridan foydalanib, $p(\tau, t)$ va $q(\tau, t)$ funksiyalarni, ya’ni (5)-(7) BQMning yechimini topamiz.

Endi $\mathcal{L}(\tau, 0)$ Dirak operatorining spektrida faqatgina bitta lakuna ochiq bo‘lgan holda (5)-(7) BQMning yechimini topamiz. Boshqacha aytganda $\mathcal{L}(0)$

---

[3] T.V. Misura, Characterization of the spectra of the periodic and antiperiodic boundary value problems that are generated by the Dirac operator, I. Function theory, functional analysis and their applications. 1978, Vol. 30, pp. 90-101 [in Russian].

Dirak operatorining yagona lakunali potensiali $u_0(x)=q_0(x)-ip_0(x)$ ushbu $\{\mu_{-1},\mu_0,\xi_0(0),\sigma_0(0)=\pm1\}$ spektral berilganlar bilan keltirilgan holni qaraymiz. Ushbu holda chekli zichlikli Hirota tipidagi tenglama uchun BQM quyidagi koʻrinishda boʻladi:

$$\begin{cases} p_t=[p_{xxx}+6(\rho^2-\{p^2+q^2\})p_x]-[q_{xx}+2q(\rho^2-\{p^2+q^2\})], \\ q_t=[q_{xxx}+6(\rho^2-\{p^2+q^2\})q_x]+[p_{xx}+2p(\rho^2-\{p^2+q^2\})], \end{cases} \qquad (15)$$

$$\begin{cases} p(x,t)|_{t=0}=\dfrac{\mu_0-\mu_{-1}}{2}\cos\{-(\mu_0+\mu_{-1})x+2\sigma_0(0)\phi(0)\}, \\ q(x,t)|_{t=0}=-\sigma_0(\tau)\dfrac{\mu_0-\mu_{-1}}{2}\sin\{-(\mu_0+\mu_{-1})x+2\sigma_0(0)\phi(0)\}, \end{cases} \qquad (16)$$

bu yerda

$$\phi(0)=\arcsin\sqrt{\frac{\xi_0(0)-\mu_{-1}}{\mu_0-\mu_{-1}}},\quad \sigma_0(\tau)=\operatorname{sgn}\{\sin\{-(\mu_{-1}+\mu_0)x+2\sigma_0(0)\phi(0)\}\}.$$

$\mathcal{L}(\tau,t)$ Dirak operatori uchun teskari spketral masalalar usulini qoʻllagan holda (15), (16) BQMning yechimi topamiz:

$$p(x,t)=\frac{\mu_0-\mu_{-1}}{2}\cos\big(2K(\rho)t-(\mu_{-1}+\mu_0)x+2\sigma_0(0)\phi(0)\big),$$

$$q(x,t)=-\frac{\mu_0-\mu_{-1}}{2}\sin\big(2K(\rho)t-(\mu_{-1}+\mu_0)x+2\sigma_0(0)\phi(0)\big),$$

bu yerda

$$K(\rho)=\frac{\mu_{-1}+\mu_0}{4}[5\mu_{-1}^2+5\mu_0^2-2\mu_{-1}\mu_0+3\mu_{-1}+3\mu_0-12\rho^2]-\rho^2-\mu_{-1}\mu_0.$$

“Qoʻshimcha hadlar bilan berilgan Hirota tipidagi tenglama uchun boshlangʻich qiymat masalasi” deb nomlanuvchi ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida

$$\begin{cases} p_t=[p_{xxx}-6p_x(p^2+q^2)]+[-q_{xx}+2q(p^2+q^2)]+p_x+q, \\ q_t=[q_{xxx}-6q_x(p^2+q^2)]+[p_{xx}-2p(p^2+q^2)]+q_x-p, \end{cases} \qquad (17)$$

ushbu qoʻshimcha hadlar bilan berilgan Hirota tipidagi tenglamaning quyidagi

$$\begin{cases} p(x,t)|_{t=0}=p_0(x),\;\; p_0(x+\pi)=p_0(x)\in C^6(\mathbb{R}), \\ q(x,t)|_{t=0}=q_0(x),\;\; q_0(x+\pi)=q_0(x)\in C^6(\mathbb{R}), \end{cases} \qquad (18)$$

boshlangʻich va

$$\begin{cases} p(x+\pi,t)=p(x,t),\;\; q(x+\pi,t)=q(x,t),\quad x\in\mathbb{R},t>0, \\ p(x,t),q(x,t)\in C_x^3(t>0)\cap C_t^1(t>0)\cap C(t\geqslant 0). \end{cases} \qquad (19)$$

silliqlik shartlarini qanoatlantiruvchi x oʻzgaruvchi boʻyicha π davrli cheksiz zonali yagona global yechimi mavjud ekanligini (1) Dirak operatori uchun teskari spektral masalalar usuli yordamida isbotlangan.

Dastlab $\mathcal{L}(\tau,t)$ Dirak operatorining spektral berilganlari evolyutsiyasini ifodalovchi Dubrovin differensial tenglamalar sistemasini keltiramiz.

6-lemma. Aytaylik, $\{p(x,t),q(x,t),x\in\mathbb{R},t>0\}$ funksiyalar (17)-(19) BQM yechimidan iborat boʻlsin. U holda $\mathcal{L}(\tau,t)$ Dirak operatorining

$\{\mu_n(t), \xi_n(\tau,t), \sigma_n(\tau,t) = \pm 1, n \in \mathbb{Z}\}$ spektral berilganlari Quyidagi Dubrovin differensial tenglamalar sistemlarini qanoatlantiradi:

$$1. \frac{\partial \mu_n(t)}{\partial t} = 0, \quad n \in \mathbb{Z}, \tag{20}$$

$$2. \frac{\partial \xi_n(\tau,t)}{\partial \tau} = 2(-1)^{n-1}\sigma_n(\tau,t)\sqrt{(\xi_n(\tau,t)-\mu_{2n-1})(\mu_{2n}-\xi_n(\tau,t))f_n(\xi)} \times$$
$$\times \{p(\tau,t)+\xi_n(\tau,t)\}, n \in \mathbb{Z}, \tag{21}$$

$$3. \frac{\partial \xi_n(\tau,t)}{\partial t} = 2(-1)^{n}\sigma_n(\tau,t)\sqrt{(\xi_n(\tau,t)-\mu_{2n-1})(\mu_{2n}-\xi_n(\tau,t))f_n(\xi)g_{n,2}(\xi)}. \tag{22}$$

Shuningdek, quyidagi boshlang‘ich shartlar o‘rinli:

$$\xi_n(\tau,t)|_{t=0} = \xi_n^0(\tau),\ \sigma_n(\tau,t)|_{t=0} = \sigma_n^0(\tau),\ \ n \in \mathbb{Z}, \tag{23}$$

bu yerda $\xi_n^0(\tau), \sigma_n^0(\tau) = \pm 1, n \in \mathbb{Z}$ lar $\mathcal{L}(\tau,0)$ Dirak operatorining spektral parametrlari. $f_n(\xi), n \in \mathbb{Z}$ ketma-ketlik esa (11) formula yordamida aniqlanadi va

$$g_{n,2}(\xi) = [4\xi_n^3 + 4p\xi_n^2 + 2\xi_n(p^2+q^2+q_\tau) - p_{\tau\tau} + 2(pq_\tau - p_\tau q) +$$
$$+2p(p^2+q^2)] + [2\xi_n^2 + 2p\xi_n + p^2 + q^2 + q_\tau] + \left[\frac{1}{2} - \xi_n - p\right], n \in \mathbb{Z},$$

$p = p(\tau,t), q = q(\tau,t),\ \xi \equiv \xi(\tau,t) = (\dots, \xi_{-1}(\tau,t), \xi_0(\tau,t), \xi_1(\tau,t), \dots),$
$\sigma \equiv \sigma(\tau,t) = (\dots, \sigma_{-1}(\tau,t), \sigma_0(\tau,t), \sigma_1(\tau,t), \dots).$

Ushbu

$$\xi_n(\tau,t) = \mu_{2n-1} + (\mu_{2n} - \mu_{2n-1})\sin^2\big(x_n(\tau,t)\big), n \in \mathbb{Z},$$

almashtirish yordamida (22), (23) BQM $\mathcal{K}$ Banax fazosida yagona masala sifatida ifodalaniladi:

$$\frac{dx(\tau,t)}{dt} = \mathcal{H}\big(x(\tau,t)\big),\ \ x(\tau,t)|_{t=0} = x^0(\tau),\ \ x^0(\tau) \in \mathcal{K}, \tag{24}$$

bu yerda

$$\mathcal{K} = \Big\{x = (\dots, x_{-1}(\tau,t), x_0(\tau,t), x_1(\tau,t), \dots):$$
$$\|x\| = \sum_{n=-\infty}^{+\infty}(1+|n|^2)(\mu_{2n}-\mu_{2n-1})|x_n| < \infty\Big\},$$

$\mathcal{H}(x) = (\dots, \mathcal{H}_{-1}(x), \mathcal{H}_1(x), \dots),$

$$\mathcal{H}_n(x(\tau,t)) = (-1)^n\sigma_n^0(\tau)\bar{f}_n\big(\dots, \lambda_1 + (\lambda_2-\lambda_1)\sin^2\big(x_1(\tau,t)\big), \dots\big) \times$$
$$\times\, \overline{g}_{n,2}\big(\dots, \lambda_1 + (\lambda_2-\lambda_1)\sin^2\big(x_1(\tau,t)\big), \dots\big) = (-1)^n\sigma_n^0(\tau)\overline{f}_n\big(x(\tau,t)\big)\overline{g}_{n,2}\big(x(\tau,t)\big).$$

7-lemma. Agar boshlang‘ich shartdagi $p_0(x)$ va $q_0(x)$ funksiyalar

$$p_0(x+\pi) = p_0(x) \in C^6(\mathbb{R}),\ \ q_0(x+\pi) = q_0(x) \in C^6(\mathbb{R}),$$

shartlarni qanoatlantirsa, u holda $\mathcal{H}(x)$ vektor funksiya $\mathcal{K}$ Banax fazosida Lipshits shartini qanoatlantiradi, ya’ni, shunday o‘zgarmas $N = \text{const} > 0$ mavjudki, barcha $x, y \in \mathcal{K}$ elementlar uchun ushbu

$$\|\mathcal{H}(x) - \mathcal{H}(y)\| \le N\|x-y\|,$$

tengsizlik o‘rinli bo‘ladi. Bu yerda $N = A\sum_{n=-\infty}^{+\infty}\gamma_n(1+|n|^3)(1+|n|^2) < \infty.$

7-lemmadan (24) BQMning, boshqa so‘z bilan aytganda (22), (23) BQMning barcha $t > 0$ va $\tau \in \mathbb{R}$ qiymatlarda yagona yechimi mavjud ekanligi kelib chiqadi.

Endi 6-lemma va 7-lemmalardan foydalanib, (17)-(19) BQMning yechimini topish algoritmini keltiramiz:

1) Dastlab, $\mathcal{L}(\tau,0)$ Dirak operatorining $\{\mu_n,\xi_n^0(\tau),\sigma_n^0(\tau),n\in\mathbb{Z}\}$ spektral berilganlarini topamiz;

2) So‘ngra $\mathcal{L}(\tau,t)$ Dirak operatorining spektral berilganlarini $\{\mu_n,\xi_n(\tau,t),\sigma_n(\tau,t),n\in\mathbb{Z}\}$ orqali belgilaymiz va (22), (23) BQMni ixtiyoriy τ qiymatlarda yechib, $\{\xi_n(\tau,t),\sigma_n(\tau,t),n\in\mathbb{Z}\}$ spektral parametrlarni topamiz;

3) (3) va (4) izlar formulalaridan foydalanib, $p(\tau,t)$ va $q(\tau,t)$ funksiyalarni, ya’ni (22)-(23) BQMning yechimini topamiz.

Shunday qilib biz quyidagi teoremani isbotladik.

4-teorema. Agar boshlang‘ich shartdagi $p_0(x),q_0(x)$ funksiyalar ushbu

$$p_0(x+\pi)=p_0(x)\in C^6(\mathbb{R}),q_0(x+\pi)=q_0(x)\in C^6(\mathbb{R}),$$

shartlarni qanoatlantirsa, u holda (17), (19) BQM yagona $C_x^3(t>0)\cap C_t^1(t>0)\cap C(t\geqslant 0)$ sinfga tegishli bo‘lgan $p(x,t)$ va $q(x,t)$ yechimlarga ega. Ushbu yechimlar mos ravishda (3) va (4) formulalar yordamida aniqlanadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Moslangan manbalar bilan berilgan Hirota tipidagi tenglama uchun Koshi masalasi”** deb nomlanadi va ushbu bobning birinchi paragrafida ushbu

$$\begin{cases} p_t=[p_{xxx}-6p_x(p^2+q^2)]+[-q_{xx}+2q(p^2+q^2)]- \\ -\sum\limits_{k=-\infty}^{+\infty}\zeta_k(t)v_1(\pi,\mu_k,t)\big(\psi_1^+(x,\mu_k,t)\psi_2^-(x,\mu_k,t)+\psi_1^-(x,\mu_k,t)\psi_2^+(x,\mu_k,t)\big), \\ q_t=[q_{xxx}-6q_x(p^2+q^2)]+[p_{xx}-2p(p^2+q^2)]+ \\ +\sum\limits_{k=-\infty}^{+\infty}\zeta_k(t)v_1(\pi,\mu_k,t)\big(\psi_1^+(x,\mu_k,t)\psi_1^-(x,\mu_k,t)-\psi_2^+(x,\mu_k,t)\psi_2^-(x,\mu_k,t)\big), \end{cases} \tag{25}$$

qator moslangan manbali Hirota tipidagi tenglamaning quyidagi

$$\begin{cases} p(x,t)|_{t=0}=p_0(x)\in C^6(\mathbb{R}),\ \ p_0(x)=p_0(x+\pi), \\ q(x,t)|_{t=0}=q_0(x)\in C^6(\mathbb{R}),\ \ q_0(x)=q_0(x+\pi), \end{cases} \tag{26}$$

$$\begin{cases} p(x+\pi,t)=p(x,t),\ \ q(x+\pi,t)=q(x,t), \\ p(x,t),q(x,t)\in C_{x,t}^{3,1}(t>0)\cap C(t\geq 0),\ \ x\in\mathbb{R},t>0. \end{cases} \tag{27}$$

boshlang‘ich va silliqlik shartlarini qanoatlantiruvchi yechimi topish masalasi qaralgan. Bu yerda $\zeta_n(t)$ –berilgan haqiqiy uzluksiz funksiyalardan iborat ketma-ketlik bo‘lib, u quyidagi asimptotikani qanoatlantiradi:

$$\zeta_n(t)=O\left(\frac{1}{1+n^2}\right),\ \ |n|\to\infty. \tag{28}$$

Shuningdek, $\psi^\pm(x,\mu,t)=\left(\psi_1^\pm(x,\mu,t),\psi_2^\pm(x,\mu,t)\right)^T$ funksiyalar Dirak sistemasining Floke yechimlari, ya’ni

